

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARDA FAOL
FUQAROLIK KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING
INNOVATSION-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI**

*Buxoro davlat universiteti mustaqil
tadqiqotchisi Asadullayeva Nargiza*

Anotatsiya: Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida talaba-yoshlar jamityatimiz taraqqiyotining yangi bosqichining maqsad va vazifalarini tushunishi, o’zlarining ongiga singdirishi muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu sohada talaba-yoshlar malakaga ega bo’lmasada, nazariy bilimlarga ega bo’lishlarini ta’minlash zarur.

Kalit so‘zlar: kompetentsiya, innovatsiya, yoshlar, jamiyat, texnologiya, taraqqiyot

O’zbekiston Respublikasidagi yoshlar siyosatiga asoslangan sa’y-harakatlar tizimi davlat va shaxs, davlat va fuqarolik jamiyati, davlat va oila ustuvorligi, uning himoyasi, davlat va milliy xavfsizlik, davlat va mafkura, davlat va ta’lim-tarbiya, davlat va aholi salomatligi, davlat va xotin-qizlar, davlat va yoshlar kabi o’zaro aloqador va o’zaro mutanosib ijtimoiy-siyosiy voqeliklarning izchil, hamnafas va bir-birini to’ldirgan ob’ektivligidan iboratdir. Shu bilan birga, davlat o’z siyosatini amalga oshirar ekan, tabiiy ravishda yoshlar qatlamini uning tayanchi va istiqbolini belgilab beruvchi asos sifatida qabul qiladi. Yoshlar davlatning eng muhim ijtimoiy-insoniq qadriyatlaridan hisoblanadi. Shu bois, davlat siyosatining yoshlar masalasidagi mohiyati yoshlar va demokratik qadriyatlar, yoshlar va milliy ong, yoshlar va milliy o’zlikni anglash, yoshlar va inson huquqlari, yoshlar va iqtisodiyot takomili, yoshlar va shaxs, yoshlar va fuqarolik jamiyati, yoshlar va oila ustuvorligi, yoshlar va milliy xavfsizlik, yoshlar va mafkura, yoshlar va ta’lim-tarbiya, yoshlar va salomatlik, yoshlar va xotin-qizlar kabi aniq kategoriylar majmuidan iborat bo’lgan ijtimoiy-siyosiy mazmunga aylanadi[40;27]. Shu bois ham, yoshlar siyosatining ustuvor ahamiyat kasb etishi va davlat siyosatining muhim qismi ekanligi kelib chiqadi. Zero, «Alisher Navoiyning «zulm qilma, insofli bo’l, xalq uchun «adl qasri», ya’ni «adolat qo’rg’onini» bunyod et»[22;60], deb aytgan so’zlarida ham ijtimoiy adolat mezonlari zauratini asoslaydi.

Shaxsni shakllantirish, unda fuqarolik kompetentsiyasini qaror toptirish oliy pedagogik ta’lim tizimida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, bo’lajak o’qituvchi shaxsi yuqori darajada rivojlangan o’z-o’zini anglash, o’zining etukligini his etish, o’zini hurmat qilish, qarorlar qabul qilish va ularni qo’llashda onglilik va fuqarolik namunalarini ko’rsatish ko’nikmalariga ega bo’lishikerak. Shu bois, bugungi kunda ta’lim muassasalari, xususan, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talaba-

yoshlardagi fuqarolik hissi, mas'uliyatini tarbiyalash, mustahkam fuqarolik kompetentsiyasini shakllantirish ehtiyoji o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda, shu nuq tai nazardan qaraganimizda ta'lif yoshlarda fuqarolik kompetentsiyasini shakllanti-rishga yo'naltirilgan integrallashgan axborotlarni taqdim etish jarayoni hisoblanadi[26;56-57].

Mazkur jarayonda shakllantirilgan sifatlar, birinchi navbatda, talabalarning ijtimoiy ongini takomillashtirishga xizmat qiladi va ularni siyosiy faollikka undaydi. Rivojlanish tendentsiyalari va rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashganlik, intellektual, ijtimoiy barqarorlik, tashabbuskorlik va faol fuqarolik pozitsiyasi kabi sifatlar bugungi talaba-yoshlarga xos bo'lishilozim. Buning uchun ularni yangicha yondashuvlar va xalqaro standartlar asosida o'qitish tizimini yaratishimiz kerak. «Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun ist'dodli kadrlarni yetakchi xorijiy ta'lif markazlarida tayyorlashva malakasini oshirish maqsadida «El-yurt umidi» jamg'armasi tashkil etilganidan xabaringiz bor. Qanday og'ir bo'lmasin, tan olishimiz kerak, yurtimiz ravnaqi uchun eng zarur yo'nalishlar bo'yicha izlanuvchan, iste'dodli yosh kadrlarni chetda, rivojlangan davlatlarda o'qitishga majburmiz»[22;73-74]. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda shakllantirilgan moslashganlik, intellektual, ijtimoiy barqarorlik, tashabbuskorlik va faol fuqarolik pozitsiyasiga sifatlar jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Buning natijasida talaba-yoshlar jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zbekistonda fuqarolik jamiyat qurish jarayonida shaxs, davlat va jamiyatning siyosiy milliy xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bunda O'zbekiston davlatining milliy barqaror-ligini ta'minlash vazifasi ustuvor o'rinnegallaydi.

Oliy pedagogik ta'lilda talabalarning xuquqiy madaniyatini oshirish, ularni ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb bo'lib kelmoqda. Talabarning xuquqiy madaniyatini shakllantirishga doir bilimlarni chuqur o'rganish, huquqiy ongi takomillashtirishning aksilogik asoslarini takomillashtirish ijtimoiy faol mutaxassisni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta'lif jarayonida, faol fuqarolik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bilimlarni takomillashtirishni samarali usullarini aniqlashmuhim o'rinnutadi. Ayniqsa, bugungi globalizm sharoitida oliy ta'lif muassasasi talabalarida huquqiy nigilizmni bartaraf etishning pedagogik texnolgiyalarini aniqlash, ijtimoiy-huquqiy faollikni takomillashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq «insonni faqat jazolashbilan, faqat repressiv usullar bilan tarbiyalab bo'lmaydi. Buni hayotning o'zi ko'p bor isbotlagan. Insonni tarbiyalash uchun butun jamiyat harakat qilishi, avvalambor, jinoiy holatlarni tug'diradigan sabab va omillarni hayotimizdan bartaraf etishimiz kerak. Barchamiz birgalikda shu ishga hissa qo'shishimiz kerak»[20;13].

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi ta'linda talabalarga shunchaki, axborotni berish, ma'lumotlar bilan tanishtirish va passiv usulda xabarni qabul qilishga majbur qilish samara bermaydi. Interfaol usulda pedagogning yo'naltiruvchilik funksiyasi orqali talabalarni axborotni qidirishga, izlashga va uni tahlil qilishga, baxsmunozara orqali xulosalarini himoya qilishga o'rgatish dolzab vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu bois, ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda faol fuqarolik kompetentsiyasini mustahkamlashda ta'larning interfaol metodlaridan foydalanish, darsga innovatsion yondashuvni olib kirish, ko'proq talabalarni izlanishga yo'naltirish zarur. Buning uchun birinchi navbatda professor-o'qituvchilarni noan'anaviy ta'limga tayyorlash, darslarga yondashuvini o'zgartirish, talabalar bilan erkin muloqat qilishga o'rgatish lozim. Agar o'qituvchi talaba bilan ta'lim jarayonida hamkorlikni yo'lga qo'ymasa, talabaga faqat ma'lumotlarni qabul qiluvchi idish sifatida qarashni to'htatmasa, dars innovatsion metodlarga asoslangan bo'lsa ham, samarador bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari fikricha, «qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o'tkazmaylik, agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyatini etarli bo'lmasa, kutilgan natijalarga erishish mushkul bo'ladi. Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval «Huquni anglashmas'uliyat hissini rivojlantiradi», deb aytgan hikmatli so'zları hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Boshqacha aytganda, Kontstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog'i kerak. Lekin ana shunday huquqiy mas'uliyatni bugun hammada ham shakllantira olayapmizmi?»[23;111-112]. Oliy ta'linda ijtimoiy-gumanitar fanlar hamkorligida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda faol fuqarolik kompetentsiyasini takomillashtirishdagi muhim vazifa ularni mustaqil ta'limga va izlanishga yo'naltirish orqali aqliy faoliyatini faollashtirishdir. Buning uchun esa, pedagog talabaning qiziqishi, mutaxassisligi va bilim darajasidan kelib chiqqan holda intellektual qobiliyatlarini kashf etishi va uni boshqarishi lozim. Shuningdek, talabalar dars jarayonida nafaqat bilim olishlari, balki erkin fikrlash qobiliyatini, tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini ham shakllantirishlari lozim.

Faol fuqarolik kompetentsiyasini mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy metodikasi, bu pedagogning dars mavzusi bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bulib, bu talabalarga dars mavzusi mantig'ini chukur tushinishlariga, uning bosh g'oyasini va asosiy tamoyillarini aniqlashga yordam bermaydi. Bunday dars o'tish usulida talabalar mavu bo'yicha asosiy tushunchalarni bilib oladi, lekin mohiyatini anglab ololmaydilar. Talaba faqat tinglovchi bo'lganligi uchun, dars samarali bo'lmaydi.

Talabalarni ma'lumotlarni analiz kilishga undash uchun ko'rgazmali kurollar va ta'larning texnik vositalaridan foydalanish kerak. Aslida yuqori samarali dars

shakllaridan biri aralashdars bulib, unda o'tilgan mavzular bilan bilan ishlash, yangi mavzuni tushunishi va amliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni qamrab oladi. Dars mashg'ulotining bu turi pedagog tomonidan yaxshi tayyorgarlikni talab etadi. Aralash dars talabalarni qanday o'qitishni, ularning dunyoqrashi, tafakkuri, aqliy qobiliyatlari va qiziqishlarini takomillashtirishda namalarga e'tibor qaratishni, buning uchun qanday pedagogik vazifalarni hal etish lozimligini rejorashtirishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. BMTning O'zbekiston Respublikasidagi Vakolatxonasi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. Toshkent. 1998. –B. 9.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani takomillashtirishnin yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida "gi Qarori. // Xalq so'zi. 2017 yil 28 iyub.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlashto'g'risida"gi PF-5106-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 27-soni, 607-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada takomillashtirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-soni Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-soni, 70-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi./Xalq so'zi. 2017 yil 13 yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son Farmoni. Xalq so'zi. 2017 yil 6 iyul.